

## KIBER MAKON, KIBER TERRORIZM, KIBER ZO'RAVONLIK(CYBERBULLIYING) TUSHUNCHALARINING MOHIYATI

*Azamova Sitora Ayonovna.*

*SHDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasi o'qituvchisi*

*SHDPI 2-kurs talabasi Qudratova Sabrina*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kiber makonni internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari orqali bog'langan virtual muhit ekanligi haqida gap boradi. Kiber makon real hayotdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faoliyatni aks ettiruvchi, ammo texnalogiya vositalarida amalga oshiriladigan sohadir. Maqolada Kiber terrorizm axborot –kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalananib, hukumat, infratuzilma yoki aholini qo'rqitish yoki ularga zarar yetkazish maqsadida amalga oshiradigan terroristik faoliyat haqida yoritilgan.

**Kalit so'zi.** Axborot texnologiyalari, kompyuter, telefon, kiber xujum, kiber maydon, kiber terrorizm, internet, ta'lim-tarbiya.

Axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari va aloqa vositalarining qo'llanilishi nafaqat davlatning chegarasiz bo'lishiga ta'sir qiladi, balki ular butun dunyo bo'ylab jamiyatning xatti-harakatlarini o'zgartirdi. Aksariyat odamlar so'z erkinligini ta'minlash va kadrlar bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun kibermkon davrini yengib o'tishadi. Biroq ba'zi odamlar bu masalani o'z shaxsiy hayotining uyg'unligi va qadr-qimmatiga tahdid sifatida tashvishlantirdilar. Ba'zi sud jarayonlari kibermakonda tez-tez sodir bo'ladi, xususan, axborotni o'zgartirish, aloqa faoliyati, hatto ko'proq o'z fikrini nutqida ifoda etishi ko'zda tutiladi. Indoneziya 2008-yil 2-apreldan boshlab Elektron ma'lumotlar bilan ishslash to'g'risidagi qonunni 2008-yil 11-sonli kuchga kiritish orqali axborot texnologiyalari to'g'risidagi qonunni ishlab chiqdi. Barcha uchun axborot texnologiyalari, ommaviy axborot vositalari va aloqalarni joriy etishni yaxshilash uchun qonunni mustahkamlash. Shunga qaramay, davlat

mafkarasiga, inson huquqlariga zid kelmaslik uchun uni amalga oshirish jarayonida ushbu aktning mavjudligi nazorat qilinishi kerak. So‘z erkinligi ham insonning asosiy huquqlari sifatida tan olinmoqda va u 1948 yilda Inson huquqlari umumjahon dekloratsiyasida himoyalangan. Har bir inson fikr va so‘z erkinligi huquqiga ega; huquq hech qanday aralashuvlarsiz o‘z fikriga ega bo‘lish erkinligini hamda davlat chegarasidan qat’i nazar, axborot yoki g‘oyalarni istalgan ommaviy axborot vositalari orqali izlash, olish va tarqatish erkinligini qamrab oladi. Ushbu taklif Indoneziya davlati tomonidan inson huquqlari nuqtai nazaridan kibermakonda so‘z erkinligini nazorat qilish va himoya qilish formatini taklif qiladi. Kiber makonda so‘z erkinligini ta’minlashning ijtimoiy-falsafiy jihat keng ko‘lamlidir. Sababi ijtimoiy hayotdagi barcha voqeа-hodisalar kiber makonga ko‘chib bormoqda. Falsafa so‘zi yunonchadan olingan bo‘lib “donishlikni sevish”, “sevaman”, “donolik” – eng umumiу fan (nazariya), dunyoqarash shakllaridan biri bo‘lib inson faoliyati sohalaridan biri. U kishi qanday yashashi, hayot kechirishi kerak (etika), qaysi narsalar mavjud va ularning tabiat qanday (metafizika), bilim nima (epistemologiya), hamda qanday fikrlash to‘g‘ri (mantiq) ekanligini hal qilishga urinadi. Jahonda yuz berayotgan globallashuv, madaniyatlarning o‘zaro bir biriga ta’siri va qorishuvi nafaqat inson hayoti va faoliyati, balki tabiat, jamiyat va hatto muayyan voqeа-hodisalarga tegishli tushunchalar mazmunini ham o‘zgartirib yubormoqda. Aytish mumkinki, bugun tegishli adabiyotlarda “terror” va “terrorizm” tushunchalari bo‘yicha kelishilgan yagona ta’rif yo‘q, lekin u mazmunan ta’sir ko‘rsatmayotgan sohalarning o‘zi qolmayapdi. Terrorizmning turli manbalardagi mazmuni uch o‘lchamda ko‘zga tashlanadi: davlat qo‘llab-quvvatlovchi tuzilma; davlatdan norozilarining amaldagi hokimiyatga qarshi keskin harakati; mafkura hosilasi. Terrorizm turlari ikki o‘lcham – shakl va mazmun jihatidan tahlil qilinishi lozim. Manbalarda terrorizmning davlatga qarshi yoki davlat qo‘llab-quvvatlagan shakllari mavzuga olinadi. Davlatga qarshi terrorizm bu hokimiyat boshqaruvini ag‘darish yoki mustaqillikni qo‘lga kiritish maqsadida qo‘llanilgan terrorizmning ayni shaklidir. Masalan, yaqin o‘tmishda Kongra Gel (sobiq Kurdiston ishchi

partiyasi) o‘zлari joylashgan hududda mustaqil davlat tuzishga itilib, Turkiyaga qarshi qonli xurujlarni amalga oshirdi. Qizig‘i, u Kurdiston ishchi partiyasi, deb atalganida Yevropa Ittifoqining terrorchi guruhlar ro‘yxatiga kiritilmagan edi, nomini KADEK deb o‘zgartirganidan keyin eski nomi bu guruhlar ro‘yxatidan joy oldi. Xuddi shu holat Kongra Gelga bilan ham bo‘lishi mumkin. Terrorizmning mazmuni haqida gap ketganida, terrorizmning qanday tarqalishi tushuniladi. Yadroviy terror va kiber terror terrorizm tarqalishining ikkita muhim usuli hisoblanadi. Kompyuter tizimlari, tarmoqlari va ma’lumotlarning xavfsizligini hamda maxfiyligini ta’minlash hamda tarmoqlarga kirish orqali amalga oshiriladigan jinoyatlarning oldini olish maqsadida imzolangan Yevropa Kengashi shartnomasi amalda hech qanday natija bermayapdi. Terrorizmning o‘lchovlarini asosan ikki qismda ko‘rib chiqish mumkin. Bular psixologik va sotsilogik o‘lchovlardir. Psixologik o‘lchov misolida aytish mumkinki bir paytlar mantiqsiz odamlar keltirib chiqargan hodisalar deb qaralgan terrorchilik faoliyatları vaqt o‘tishi bilan, aslida terrorchilarning mantiqli va tizimli ravishda ish yuritadigan kimsalar ekanini ko‘rsatdi. Jo‘mardo o‘g‘li ham xuddi shu shaklda terrorchilarning psixologik muammolari yo‘qligi, ular paranoid, shizofreniyaga mansub emasligini tushunib yetganini qayd etadi. Kiberstalking – kiber zo‘ravonlikning bir turi bo‘lib, alohida shaxsni, shaxslar guruhini yoki tashkilotni bezovta qilish, ta’qib etish maqsadida Internet yoki boshqa raqamli vositalardan foydalanish hisoblanadi. Kiberstalking umumiyl stalking (inglizcha – bu biror shaxs yoki guruh tomonidan boshqa shaxsga nisbatan istalmagan va yoki takroriy kuzatish, ta’qib) huquqbuzarligining shakli bo‘lib, kibermakonda sodir etilishi, Internet, ijtimoiy tarmoqlar yoki boshqa elektron, raqamli vositalar orqali sodir bo‘lishi bilan xarakterlanadi. Kiberstalking tor ma’noda kiber ta’qibni anglatsa, keng ma’noda uning tarkibiga yolg‘on ayblovlar yoki ma’lumotlar tarqatish, tuhmat, shaxsiy ma’lumotlarni o‘g‘irlash yoki shunga urinish, tahdidlar, vandalizm, jinsiy aloqaga chorlash, qo‘rqitish yoki bezovta qilishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash kabi xatti-harakatlarni kiritish mumkin. Kiberstalkingni boshqa turdagи kiberzo,,ravonliklardan farqlashda ma’lum bir

jihatlarga e'tibor qaratish lozim. Kibertrolling bilan kiberstalkingning asosiy farqi, kibertrolling turli ijtimoiy tarmoqlar yoki raqamli platformalarda foydalanuvchilar o'rtasida nizo kelib chiqishi yoki kommunikativ ziddiyatlarning kuchayishiga urinish bo'lib, u bir martalik, oldindan rejalashtirilmagan, qurbon yoki qurbonlarning xattiharakat sub'ekti tomonidan oldindan tanlab olinmaganligi bilan xarakterlanadi. Kiberstalkingda esa qurbon oldindan tanlab olinadi, xatti-harakat rejalashtiriladi, doimiy yoki takroriy tarzda sodir etiladi. Kiberstalking klassifikatsiyasi quyidagi xatti-harakatlarni kiberstalking sifatida tasniflash mumkin:

- Soxta ayblovlar va ma'lumotlar. Ko'pgina kiberstalkerlar o'z qurbonlarining obro'siga putur yetkazishga va boshqa odamlarni ularga qarshi qo'yishga harakat qiladilar. Ular turli veb-saytlarda qurbonlari haqida noto'g'ri ma'lumotlarni tarqatadilar. Ba'zida bu uchun maxsus saytlar, bloglar, akkauntlar yaratishlari mumkin. Ular qurbon haqidagi soxta ma'lumotlarni turli guruhlar, chatlar yoki wikipedia, amazon.com kabi ommaviy maqola shakllantirish imkoniyati mavjud bo'lgan saytlarga joylashtirishadi.

- Jabrlanuvchi haqidagi ma'lumotlarni to'plashga urinish. Kiberstalkerlar shaxsiy ma'lumotlarni olish uchun jabrlanuvchining do'stlari, oilasi va hamkasblariga murojaat qilishlari mumkin. Ular Internetda ma'lumot olish uchun reklama qilishlari yoki xususiy detektiv yollashlari ham mumkin.

- Jabrlanuvchining onlayn faoliyatini kuzatish va ko'proq ma'lumot to'plash maqsadida ularning IP manzilini kuzatishga harakat qilish.

- Boshqalarni jabrlanuvchini ta'qib qilishga undash. Ko'pgina kiberstalkerlar ta'qibga uchinchi shaxslarni jalb qilishga harakat qilishadi. Ular jabrlanuvchi ta'qibchiga yoki uning oilasiga qandaydir zarar yetkazganini da'vo qilishi yoki boshqalarni ta'qibga qo'shilishga undash uchun jabrlanuvchining ismi va telefon raqami yoki boshqa ma'lumotlarini ochiq resurslarga (saytlar, guruhlar, bloglar, chatlar) joylashtirishi mumkin.

- Yolg'on viktimizatsiya. Kiberstalker u jabrlanuvchini emas, balki jabrlanuvchi uni ta'qib qilayotganligini da'vo qilishi mumkin.

- Ma'lumotlar yoki gadjetlarga hujum. Kiberstalkerlar jabrlanuvchining kompyuteri yoki boshqa gadjetlariga turli viruslar yuborish orqali zarar yetkazishga urinishi mumkin.

- Tovarlar va xizmatlarga buyurtma berish. Kiberstalkerlar jabrlanuvchi nomidan u istamagan, obro'siga putur yetkazishi mumkin bo'lgan narsalar yoki xizmatlarga buyurtma berishadi yoki turli pronografik mazmundagi jurnallarga obuna bo'lishadi. Pornografik jurnallar va o'yinchoqlarni jabrlanuvchining ish joyiga yetkazishga urinishlari ham mumkin.

- Uchrashuvni tashkillashtirish. Yoshlar va ayollar ko'pincha kiberstalkerlar tomonidan uchrashuvga taklif qilinish xavfida bo'lishadi.

- Turli saytlar va raqamli platformalarga jabrlanuvchi haqidagi tuhmat yoki kansituvchi bayonotlarni joylashtirish va shu orqali jabrlanuvchiga psixologik ta'sir qilishga urinish ham kibertalking hisoblanadi.

#### Kibertalking turlari

1. Notanish odamlar tomonidan sodir etilgan kibertalking. Kiberstalkerlar jabrlanuvchilarga mutlaqo tanish bo'llmasligi mumkin. Ular tasodifiy qurban ni vebsahifalar yoki ijtimoiy tarmoqlardan topishi mumkin.

2. Genderga asoslangan kibertalking. Onlayn jinsiy zo'ravonlik bo'lib, jabrlanuvchini gender jihatdan kansitish, ta'qib qilish hisoblanadi. Jinsiy zo'ravonlik tahdidi yoki turli shakldagi (matn, rasm, video, audio) shaxsiy ma'lumotlarni Internetga joylashtirish bilan amalga oshiriladi.

3. Turmush o'rtoq yoki intim sherik kibertalkingi. Mazkur kibertalking hozirgi yoki sobiq turmush o'rtoq (intim sherik)ning onlayn ta'qibi. Bu oiladagi zo'ravonlikning bir ko'rinishi bo'lib, ekspertlarning fikriga ko'ra, uning maqsadi jabrlanuvchining ijtimoiy izolyatsiyasini yaratish va uni qaram qilish uchun nazorat qilishdir. Ta'qib qiluvchilar o'z qurbanlariga qayta-qayta bezovta qiluvchi va qo'rquvchi elektron pochta xabarlarini yuborishi mumkin.

4. Mashhur shaxslarga nisbatan kibertalking. Mashhur shaxslar, jamoat arboblari, shoubiznes vakillari odatda kibertalkingning odatiy qurbanlari hisoblanishadi. Kiberstalkerlar odatda o'zlari yaxshi bilgan insonlarni, jumladan

mashhur insonlarni qurban sifatida tanlab olishadi, ba’zida mashhur inson ham uni bilishiga ishonishadi. Har doim omma e’tiborida bo‘lgan mashhur shaxslar va jamoat arboblari ko‘pincha o‘zlarini muxlislari deb ko‘rsatadigan kiberstalkerlarning qurbanini bo‘lishadi

5. Internet jinoyatchilar, anonim guruhlar tomonidan sodir etilgan kiberstalking. Zamonaviy Web 2.0 texnologiyalari anonim odamlar guruhlariga tuhmat, zo‘ravonlik tahdidlari va raqamli hujumlar uchun qurbanlarni qidirish imkonini beradi. Bunga yolg‘on bayonotlar, soxta fotosuratlar, zo‘rlash tahdidi yoki boshqa zo‘ravonlik tahdidlari, jabrlanuvchi haqida intim ma’lumotlarni joylashtirish, ish beruvchilariga zararli elektron pochta xabarlarini yuborish kiradi. Bundan tashqari, kiberstalkerlar jabrlanuvchining obro‘siga putur yetkazadigan kontentni Internetda mashhurroq qilish uchun ko‘pincha qidiruv tizimlarini manipulyatsiya qilishadi. Bunday harakatlar ko‘pincha qurbanlarni taxallusdan foydalanishga yoki butunlay oflays rejimga o‘tishga majbur qiladi Bugungi kunda kiber zo‘ravonlik va kiberstalkingga oid ma’lumotlarni, mavzuga xalqaro maydonda shakllangan munosabatni tahlil etib, quyidagi taklif va tavsiyalarni xulosa o‘rnida taqdim etish mumkin:

1. Aholining, xususan bolalar va xotin-qizlarning kiber zo‘ravonlik, uning turlari, shakllari, kiber zo‘ravonlikka uchraganda nimalar qilish zarurligi kabi ma’lumotlar joylashtirilgan, to‘g‘ridan to‘g‘ri tegishli organlarga murojaat qilish, psixologik yordam ko‘rsatish imkoniyati mavjud bo‘lgan ixtisoslashtirilgan saytlar yaratish;

2. Kiberzo,,ravonlik turlari, xususan, kiberbullying, kiberstalking, seksing, doksing, harrasment va boshqalar hamda ularning huquqiy oqibatlari haqida dastlabki tasavvur paydo bo‘lishi maqsadida maktablarda yuqori sinf o‘quvchilari uchun maxsus kurslar, interaktiv metodlarga asoslangan seminar-treninglar tashkil etish;

3. Kiber zo‘ravonlikning oldini olish, uning oqibatlarini yumshatishga qaratilgan loyihalar uchun grantlar e’lon qilish, malakali milliy va xorijiy mutaxassislarni jalg qilish;

4. Kiber zo‘ravonlikning oldini olishda nodavlat notijorat tashkilotlarining faoliyatini rag‘batlantirish, davlat va nodavlat tashkilotlarning hamkorligini ta’minlash;

5. Kiber zo‘ravonlik qarshi kurashish bo‘yicha tegishli normativ-huquqiy hujjatlarni qabul qilish, sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish.

Umuman olganda, terrorizm ko‘p jihatdan murakkab tuzilishga ega bo‘lganligi sababli uni tadqiq qilishda hali-hanuz muvaffaqiyatli natijalar ko‘zga tashlanmaydi. Buning sababi ma’lumotlar yo terrorchilardan yoki davlatdan olinadi va ancha cheklangani uchun tadqiqotchi mavzuga sub’ektiv yondashishi kerak bo‘ladi. Tadqiqotlarda qo‘llaniladigan ma’lumotlarning aksariyati davlat tomonidan moliyalashtiriladigan terrorizm muammolari bilan shug‘ullanadigan tashkilotlarniki bo‘lib psixologlar va psixiatrlar fikrlari asosida shakllantirilmagandir. Shunga ko‘ra terror va terrorizm tushunchalarning quyidagi mohiyatlari hali yetarli o‘rganilmay kelmoqda: Terrorizm ta’limot bo‘lishi mumkin, u davlat, nodavlat va yoki xususiy tuzilma sifatida uyushgan guruuhlar va ularning maqsadlariga xizmat qiluvchi, sun’iy yoki tabiiy guruh ham bo‘lishi mumkin. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida nazarda tutilgan so‘z erkinligiga kelsak, 1999 yil 39-sonli Qonunning 14-moddasida ko‘rsatilgan: 1) Har bir inson shaxsiy va ijtimoiy muhitni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan muloqot qilish va ma’lumot olish huquqiga ega. 2) Har bir inson mavjud vositalardan foydalangan holda ma’lumot izlash, olish, egalik qilish, saqlash va etkazish huquqiga ega. Ammo Indoneziyada so‘z erkinligining o‘zi hali ham maksimal darajada emas, chunki u tuhmat bo‘yicha 310-modda va humatsizlik bo‘yicha Jinoyat qonunining 311-moddasi mavjudligi bilan tahdid qilgan. Jinoyat qonuni kodeksi tuhmat chegaralari haqida aniq tushuncha bermaydi. Shuning uchun ushbu maqolalar kibermakondagi ifoda orqali boshqalarga zarar yetkazgan deb hisoblangan shaxsni jazolash uchun ishlatiladi. Jurnalistlar va bloggerlar huquqni muhofaza qilish organlari tomonidan jinoyatchi sifatida jinoiy javobgarlikka tortish uchun tez-tez ishlatib turadigan maqola tufayli endilikda 27-modda (3) bandidan ehtiyyot bo‘lishlari kerak. Maqolalar

barcha hujjatlar va yozuvlarni veb-saytda nashr etishga majbur qiladi va blog da'voga moyil. 27 (3)-moddaning to'liq mazmuni quyida ko'rsatilgan: Har qanday shaxs qasddan va hech qanday huquqsiz, haqoratli va/yoki tuhmat/tuhmat elementiga ega bo'lgan elektron ma'lumot va/yoki elektron hujjatni tarqatish va/yoki uzatish va/yoki foydalanishga ruxsat berish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

021.- Shermuxamedova N.A.Diniy fanatizm fenomeni //Inson falsafasi.-T;Noshir ,2016.B314-499.Qo'shimcha adabiyotlar

Azamova S.EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI//Talqin va tadqiqotlar.-2024.-T. 1.-N.1

Ayonovna A.S.,Xudoyberdi o'g'li P L.EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI//TADQIQOTLAR.UZ-2024.-T.40.N,4.-C.135-139

Kamilov D.Dinshunoslik.O'quv qo'llanma. Lesson Press,2128b.

1. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – Т. 1. – №. 1.

2. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O 'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.

3. Azamova S. A. PROBLEMS OF FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT. – 2024. – Т. 3. – №. 5. – С. 743-749.

4. Nurillaevich O. B. et al. Factors Of The Formation Of Ecological Culture In The Education And Training System //Journal of Pharmaceutical Negative Results. – 2022. – С. 984-989.

5. Aralovna O. G. et al. Ecological globalization and its social place in the globalization system of processes //Journal of Survey in Fisheries Sciences. – 2023. – Т. 10. – №. 1S. – С. 5000-5006.

6. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
7. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
8. Ayonovna A. S., Xudoyberdi o'g'li P. L. EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI ‘ //TADQIQOTLAR. UZ. – 2024. – T. 40. – №. 4. – C. 135-139.
9. Ayonovna A. S. IN THE CONTEXT OF ENVIRONMENTAL GLOBALIZATION, THE NEED FOR ENVIRONMENTAL EDUCATION BECOMES A PRIORITY //American Journal Of Social Sciences And Humanity Research. – 2024. – T. 4. – №. 07. – C. 30-35.
10. Shakhrisabz A. S. A. THE USE OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF ORIENTAL SCIENTISTS IN THE FORMATION OF ECOLOGICAL CULTURE AMONG SCHOOLCHILDREN IN THE CONTEXT OF ECOLOGICAL GLOBALIZATION //International Scientific and Current Research Conferences. – 2024. – C. 94-97.
11. Ayonovna A. S. et al. GLOBALLASHUV DAVRIDA EKOLOGIK MUAMMOLARVA ULARNING YECHIMI //Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. – 2024. – T. 12. – №. 1. – C. 20-24.
12. Begaliyev, N. X. (2023). THE PROBLEM OF TERMINOLGY IN ETHNOLOGY IN ETHNOLOGICAL RESEARCH. *Oriental Journal of Social Sciences*, 69-72.
13. Begaliyev, N., & Nosirova, K. S. (2024). BOBUR VA BOBURIYLAR DAVRIDA ME'MORCHILIK SOHASINING YUKSALISHI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 538-546.
14. Бегалиев, Н. (2024). БУХОРО-ҚАРШИ САВДО ЙЎЛИДА ЖОЙЛАШГАН САРДОБАЛАР. *Science and innovation*, 3(Special Issue 3), 141-144.